

“ISTE’FO” QISSASIDA OILA MASALASI***Abdualimov Behzod Xudoyberdi o‘g‘li****Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti adabiyotshunoslik: o‘zbek
adabiyoti yo‘nalishi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Murod Muhammad Do‘sning “Iste’fo” qissasidagi oila mavzusi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Saidmurod Elomonov, Binafshaxon, Xudoyor Qo‘shhayev, Galatepa, mansab, lavozim, oila, sevgi.

Murod Muhammad Do‘s nomi tilga olinganda, birinchi, o‘rinda uning “Lolazor” romani ko‘z oldimizga keladi. Undagi Nazar Yaxshiboyev va Oshno obrazlari barchamizga tanish. Ko‘pchilik M. M. Do‘s desa, faqat “Lolazor” romani bilan cheklanadi. Lekin uning uchta qissasi ham borki, qancha gapirsa, shuncha arzigulik. Bu qissalarda ham o‘tgan asrdagi voqealar qalamga olingan bo‘lishiga qaramay, ulardagi ko‘tarilgan g‘oya hozirgi kunga ham daxldordir. Qisqa qilib aytganda, bu asarlar yoshi ulug‘ bo‘lsa-da, “qarimaydigan” asarlardan. Bu maqolada ana shu qissalardan biri – “Iste’fo” qissasi haqida to‘xtalamiz.

Asar markazida Saidmurod Elomonov obrazi turadi. Elomonov – ko‘p yillardan buyon mas’ul lavozimlarda mehnat qilgan “katta”lardan biri. U ishida, lavozimida halol ishlaydi. Xalqning haqqiga xiyonat qilmaydi. Lekin biladiki, u ishlayotgan lavozim uning sohasiga umuman to‘g‘ri kelmaydi. O‘sha davrdagi tuzum tufayli u o‘zi istagan hayotda yasholmadi, o‘zi sevgan ishda ishlolmadi. Chunki o‘sha davrdagi sovet mafkurasining talabi ham shunday edi: aqli bo‘lishi kerak emas, aytilgan buyruqni bajarsa bo‘ldi. Qahramonimiz ham ana shunday amaldorlardan. U amal pillapoyalaridan odimlayverib, shu joyga yetib keldiki, ortiga nazar tashlab, faqat pushaymondan boshqa narsani his qilmadi. Hammasiga o‘sha mansab aybdor. Yoshligida bu narsalardan uni ko‘pni ko‘rgan rais Raim G‘aybarov ogohlantirgan edi: “Sen shu kichikroq amalingda turganing ma’qul, Saidmurodboy, burgut osmon bag‘irlab uchadi, chumchuq – yer bag‘irlab, changaling yumshoq ko‘rinadi, otang Zamonboy anchayin cho‘pon bo‘lsayam, sinchiligi bor edi, senda u siyoqdan yo‘q, oz-moz o‘rganganing bilan, asli, ko‘ngli bo‘sh yigitsan, hozir-ku baharnav, lekin kattaroq amalga minsang, ko‘p odamning taqdiriga esh bo‘lasan, ana o‘shanda, birov senga rost gapirmay qo‘yadigan mahal nima qilasan, oqni qoradan o‘zing ajratib olaringga chog‘ing yetadimi?” Keyinchalik bu bashorat to‘g‘ri chiqadi. Elomonov ishongan, uni “o‘rtoq Elomonov, agar shu el omon bo‘lsa, Saidmurod Zamon o‘g‘li zamon turguncha turadi” deb ko‘klarga ko‘targan Xudoyor Qo‘shhayev uning obro‘yini bir pul qiladi, shogird deb bilganlari uni mensimay qo‘yishadi. Lekin eng yomoni qo‘l ostidagi

muovin Qo'shshayevning qilmishlari edi. Chunki Qo'shshayev Elomonovning mansabidan foydalanib, uning nomidan pora olib keladi, kolxozda xalqning pulini yeb yuboradi. Traktorchi Samadov kolxozdagi jinoyatlar haqida aytganda ham Qo'shshayevning yolg'onlariga chuv tushadi. Elomonov bu ishlarga chiday olmaydi, sababi uni yordamchisi maymun qilib o'ynatgan edi. Oxir oqibat iste'fo berishga qaror qiladi. Keyingi berilgan lavozim – gazeta tahriri yati rahbarligi ham unga mos emas. Chunki uning asl mutaxassisligi irrigator, suvchi, edi. Lavozimi pasaygan vaqtida hammaning haqiqiy qiyofasi ochiladi. Biladiki, hamma shu vaqtgacha uni aldagani, laganbardorlik qilgan. O'zi aytganidek, shogirdlari, aslida, "shotirlar" ekan. O'shanday og'ir vaziyatda inson o'ziga suyanch, yupanch izlaydi. Tabiiyki, bu suyanch uning oilasi, turmush o'rtog'i bo'ladi. Lekin Elomonov izlagan suyanch Binafshaxondan topilmadi. Undan eshitgani faqat ta'nalar bo'ldi. Chunki Binafshaxon Elomonovga mansabi tufayli tekkan, shu sababli ham uni er hisoblardi. Elomonovda ham ayb bor: u ham Binafshaxonning shoiraligiga uchgan, tushunsa-tushunmasa, she'rlariga qarsak chalgan. Oilaning ustuni bo'lmish sevgi, hurmat bu oila uchun asos bo'lмаган. Bu oila uchun mansab, lavozim, mashhurlik birinchi o'rinda edi. Asardagi bu parchaga e'tibor beraylik:

“ –...To'g'ri, sizning gapingiz ko'proq inobatga olinadi, lekin oilaviy masalani siyosatga eltilib taqash... Endi bu ishingiz ma'qul emas-da, xonim!..

– Yaxshi-yomonni o'zim bilaman! – dedi Binafshaxon battar qizishib.

– Qo'ying, xonim. Keling, odamga o'xshab gaplashaylik...

– Hali men sizga odam bo'lmay qoldimmi?

– Endi, gapni hadeb buravermang-da, xonim, – dedi Elomonov. – Albatta, siz ham teng huquqli odamsiz. Shuncha yil ahil-inoq yashab, bugun... Og'ziga kuchi yetgan ham bor, yetmagan ham. Ilgari menga bunday ilkis gapirmasdingiz. Sizga nima bo'ldi, aytинг?

Elomonov xotiniga yaqin borib, tirsagidan tutdi. Ko'zlariga tik boqdi. So'ng Binafshaxonning bilagidan o'pmoqchi bo'lib, lab juftladi. Binafshaxon qo'lini siltab tortdi. Elomonov boyagi alfovza – qaddi sal buzik, lablari cho'chchaygancha qolaverdi. Alami keldi, zarracha qadrim yo'q ekan-da, deb o'yaldi”.

Bunday oilalar hayotda bo'lмаган deysizmi? O'sha davr jamiyatida ham bunday muammoli oilalar bo'lган. Hozir yo'q deysizmi? Hozir ham shunday oilalar bor-ku, boylik yoki mashhurlik tufayli qurilayotgan va tezda ajralib ketayotgan oilalar.

Shu joyda asarning g'oyasiga qaytamiz. Asarda muallif sovet davridagi mansabparastlik va laganbardorlik illatini tanqid qilagan va uni bir oilaning tanazzuli bilan ko'rsatib bergen. Yozuvchining yutug'i ham shu yerda ko'rindi. Agar asar faqat o'sha davr mafkurasini ko'rsatib, ijtimoiy hayot bilan bog'lanmaganda bu asar unutilib ketishi mumkin edi. Lekin yozuvchi asarga oila mavzusini kiritib, uni umrboqiy qilishga erishgan. Chunki oila mavzusi har qaysi davrda dolzarb.

Yozuvchi bu oilaning qurilishini, tuzumni qoraladi. Unda qanday hayot kechirish kerak? Yozuvchi asarda bu savolga ham javob beradi. Adibning “Galatepaga qaytish yohud saodatmand G‘aybarov” qissasi bosh qahramoni – Toshpo‘lat G‘aybarov shahardan bezgan, yaqin do‘sitan xiyonat ko‘rgan, o‘ttiz yoshdan oshgan bo‘lsa ham oila qurmagan edi. Lekin birga ishlovchi arxeolog qizni yaxshi ko‘rar, o‘rtalarida samimiyligini munosabat ham paydo bo‘layotgan edi. Otasi vafot etgani tufayli qishloqqa qaytib kelgan. Shu yerda huzur-halovat topgan edi. O‘sha voqealar bilan asar yakuniga yetgan edi. “Iste’fo” qissasida saodatga erishgan G‘aybarovni qishloqdoshi – baxtsiz Elomonov bilan uchrashadiradi. Ikkala obraz ham shu vaqtgacha bir-birini unchalik xushlamas edi. Lekin ular bir kitob tufayli uchrashib qolishdi. Ikkovida ikki xil kayfiyat: biri shodlikdan mast, biri g‘am-u alamga botgan. Go‘yoki yozuvchi G‘aybarov obrazi orqali inson kech bo‘lsa ham muhabbatini topa olishini, sevgan ishi tufayli katta boylik, mansabga erishmasa ham tinch-totuv, baxthli hayot kechira olishi mumkinligini ko‘rsatib berayotgandek.

Xulosa qilib aytganda, asarda Elomonov va Binafshaxonning oilasiga o‘xshash “mo‘rt oilalar” qoralanadi. Oila uchun mansab, mashhurlik yoki boylik asos qilingan oilalarning ustuni bir kun kelib qulashi; sevgi-muhabbat, o‘zaro hurmat rishtalari bilan bog‘langan oilalar esa mustahkam bo‘lishi asarda isbot etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 томлик. – Toshkent: Fan, 1978, 1979.
2. Adabiy tur va janrlar. – Toshkent: Fan, 1989.
3. Do‘s M.M. Dashtu dalalarda. Qissalar, hikoyalar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1989.
4. Olimov M. Badiiy asar pafosi estetik ideal ifodasi sifatida. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti. 1994. № 1.
5. Olimov M. Fojaviy pafosning ayrim o‘ziga xosliklari. – Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti. 2005. № 3.
6. Jo‘rayev T. Ong oqimi va tasviriylik. – Toshkent: Fan, 1994.